


“TASDIQLAYMAN”



A.Xamraqulov
“ ” 2022 yil

TANLASH HUJJATINING MAZMUNI:

- I. Tanlash ishtirokchilari uchun yo'riqnoma
- II. Texnik qism

TANLASH ISHTIROKCHILARI UCHUN YO'RIQNOMA

1. TANLASH PREDMETI VA TAXMINIY QIYMATI

Tanlash predmeti: bankning 2022 yil “Qurilishlar manzilli ro'yxati”ga kiritilgan o'z mablag'lari (yoki boshqa manbalar) hisobiga quriladigan (rekonstruksiya qilinadigan, kapital yoki joriy ta'mirlanadigan) “Bunyodkor BXM binosi” ob'ekti bo'yicha mukammal ta'mirlash ishlari *loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va ular bo'yicha o'zgartirishlar kiritish, texnik ko'rik, mualliflik nazoratini yuritish.*

- 1.2 Tanlash predmeti qiymati QQS bilan 130000000 (Bir yuz o'ttiz million) so'm.
- 1.3. Mahsulot bo'yicha texnik topshiriq tanlash hujjatlarining texnik qismida ilova qilingan. Ushbu tanlash yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan ishtirokchi bilan shartnoma tuziladi.
- 1.4. Ishlarni bajarish muddati: g'olib bo'lgan ishtirokchi bilan shartnoma imzolanib, bo'nak puli hisob raqamiga kelib tushgan kundan boshlab 25 bank ish kuni.
- 1.5. Ishlarni boshlanish muddati – bo'nak mablag'i o'tkazilgan kundan boshlab hisoblanadi.

2. TANLASH TASHKILOTCHISI

2.1. “O'zsanoatqurilishbank” ATB Bosh bank, Amaliyot boshqarmasi yoki xududiy boshqarmasining nomi (bundan keyin – Buyurtmachi deb ataladi) – tanlash tashkilotchisi hisoblanadi.

Buyurtmachi manzili: Andijon viloyati, Andijon shaxar, Boburshox 36-uy.

2.2. Tanlash Buyurtmachi tomonidan tanlashlar o'tkazish bo'yicha tuzilgan xarid komissiyasi tomonidan davlat xaridlariga oid qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

3. TANLASH ISHTIROKCHILARI

3.1. Tanlashda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar shu mazmunda ish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan barcha yuridik maqomga ega va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan (zarur hollarda) tashkilotlar ishtirok etishi mumkin.

- 3.2. Tanlashda ishtirok etishi uchun ishtirokchilarga quyidagi malakaviy va boshqa talablar quyiladi:
- shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik huquq va vakolatlar;
 - o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
 - nizom, guvoxnoma, litsenziya (zarur hollarda);
 - tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumotlar;
 - tanlash ishtirokchisining moliyaviy ko'rsatgichlari to'g'risida ma'lumot;

- qurilish ob'ekti bilan (*tanlash predmetiga muvofiq*) tanishganlik va o'rganganlik to'g'risida ma'lumot;

- tanlash ishtirokchisining qarzdorligi to'g'risida ma'lumot;

- tanlash predmeti bo'yicha oxirgi yillar ish tajribasi (shu jumladan tanlash predmetiga o'xshash ob'ektlar bo'yicha);

- mavjud uskunalar, kompyuterlar, hisoblash va o'lchash uskunalari, ko'p funksiyali printerlar va boshqalar.

- tanlash ishtirokchisining joriy davrdagi boshqa (loyiha shartnomalari) ob'ektlari;

3.3. Agar tanlash predmeti bo'lgan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'lik faoliyat qonunchilikka binoan litsenziyalashtirishi zarur bo'lsa, tanlashda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga muvofiq tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlarga ruxsat etiladi.

3.4. Quyidagi ishtirokchilarga tanlash jarayonlarida qatnashishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etilish (ajratilishi, qo'shilish), tugatish yoki bankrotlik arafasida turganlar; mol-mulki musodara qilinganlar, hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-xuquqiy yoki bir biriga moliyaviy qaramligi mavjudlar.

4. TANLASHDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFLARNI TAKDIM ETISH

4.1. Tanlash uchun takliflar va unga tegishli ilovalar va hujjatlar, ma'lumotlar Buyurtmachi va Ishtirokchi ixtiyoriga ko'ra o'zbek yoki rus tilida taqdim etilishi mumkin.

4.2. Tanlash hujjatlarida quyidagilar taqdim etilishi lozim:

- Texnik qism: Buyurtmachi tomonidan qo'yilgan texnik talablar bo'yicha bajariladigan ish va xizmatlar ko'rsatilishi kerak;

- Moliyaviy qism: ishtirokchi tomonidan uning elektron savdo platformadagi shaxsiy kabinetini orqali belgilangan tartibda kiritiladi.

Tanlash hujjatlar muxrlangan xolda (muhr talab qilinadigan hujjatlar) elektron ravishda joylanadi.

4.3. Texnik hujjatlar to'liq bo'lishi talab etiladi (shakllar ilova qilinadi).

4.4. Tanlash ishtirokchisi:

- faqat bitta taklif berishi mumkin;

- taqdim etilayotgan hujjatlarning haqiqiyliigi va ma'lumotlarning haqqoniyligiga to'liq javobgar bo'ladi;

- takliflar berish muddati tugagunga qadar o'z takliflarini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

5. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI

5.1. Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonun talablarini buzgan tomonlar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

5.2. Xarid komissiyasi davlat xaridlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda g'olib ishtirokchilarni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilishga majburdir.

5.3. Tanlash ishtirokchisi taqdim etilgan barcha hujjatlarni haqiqiyliigi va to'g'riligiga javobgardir. Ishtirokchi g'olib deb topilgandan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda buyurtmachi bilan o'rnatilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuziladi. G'olib tashkilot o'z tashabbusi bilan shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda (*g'olib tashkilot buyurtmachiga yozma ravishda murojaat qilishi shart*) buyurtmachi qonunchilikda belgilangan tartibda zahira g'olibi bilan shartnoma tuzishga haqli.

6. BOSHQA SHARTLAR

6.1. Buyurtmachi tanlash hujjatlariga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritishga haqli. Tanlash predmetlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda ushbu tanlashda takliflar berish tugaydigan muddat tanlash hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan sanadan e'tiboran kamida 3 ish kunga uzaytirilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'londa o'zgartirishlar kiritiladi.

6.2. Tanlash ishtirokchisi tanlash hujjatlari qoidalarini tanlash o'tkazish uchun e'londa belgilangan shaklda tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga so'rov yuborishga haqli.

6.3. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi xarid komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadi.

6.4. Tanlashning istalgan ishtirokchisi tanlash natijasi bo'yicha bayonnoma e'lon qilinganidan so'ng buyurtmachiga tanlash natijalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga

haqli. Buyurtmachi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tanlash ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etishi shart.

6.5. Tanlash natijalari bo'yicha shartnoma tanlash hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash g'olibi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.

1-jadval

Taklif hujjatlarini ishlab chiqish uchun texnik baholash varag'i

T/r	Shakllarni baholash parametrining nomi.	shakl №	Ballar miqdori
1	Tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumotlar	1-shakl	0-35
2	Tanlash ishtirokchisining moliyaviy ahvoli	2-shakl	0-15
3	Tanlashdagi predmetiga o'xshash ishlar bo'yicha oxirgi yillardagi ish tajribasi	3-shakl	0-25
4	Mavjud uskunalar, kompyuterlar hisoblash va o'lchash uskunalari ko'p funksiyali printerlar va boshqalar ro'yxati	4-shakl	0-15
5	Ishtirokchining tanlash predmeti bilan tanishganligi va o'rganganligi to'g'risida ma'lumotnoma	5-shakl	0-10

7. TANLASH TAKLIFLARINI BAHOLASH MEZONLARI

7.1. Tanlash hujjatida xar bir parametr bo'yicha baholash mezonlari kiritilishi kerak.

7.2. Baholash mezonlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

ob'ekti bo'yicha tanlash takliflarini texnik **BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Shakllarni baholash parametrining nomi.	Ballar miqdori
I. Tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumotlar. 1 – shakl (35 ball)		
1	Tashkilot strukturasi (bankrot emasligi to'g'risida, insofsiz ijrochilar ro'yxatida mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot)	0-5
2	Zarur litsenziyaning 3 toifadan dan past bo'lmashligi (litsenziya uchun ma'lum toifa talab etilgan taqdirda, shu toifadan past bo'lgan litsenziya taqdim etgan yoki umuman taqdim etmagan ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi), guvohnoma nusxasi (litsenziya talab etilmaydigan ishlar uchun)	0-10
3	Rahbarlik ish staji 5 yildan kam bo'lmagan, tanlash predmetiga doir mutaxassisligi bo'lgan birinchi rahbarning mavjudligi	0-5
4	3 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega 5 kishidan kam bo'lmagan oliy ma'lumot diplomiga ega injener-texnik xodimlarning mavjudligi (loyiha bosh injeneri, arxitektor, konstruktor, smetachi, muxandislik tarmoqlarini loyihalovchi xodim va hokazo)	0-10
5.	Doimiy ravishda ishlovchi 5 tadan kam bo'lmagan malakaviy xodimlar mavjudligi	0-5
II. Tanlash ishtirokchisining moliyaviy ahvoli. 2-shakl (15 ball)		
1	Soliqlar bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi (agar mavjud bo'lsa ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi)	0-10
2	O'tgan yilda sof foydaning mavjudligi	0-5
III Tanlash predmetiga o'xshash oxirgi yillardagi ish tajribasi. 3-shakl (25 ball)		
1	Tanlash predmetiga o'xshash ishlarni o'z kuchi bilan oxirgi yillardagi bajarganligi	0-15

2	Oxirgi yillarda tanlash predmetiga o'xshash bajargan ishlari bo'yicha kamida.	0-10
IV. Mavjud uskunalar, kompyuterlar hisoblash va o'lchash uskunolari ko'p funksiyali printerlar va boshqalar ro'yxati. 4-shakl (15 ball)		
1	Loyihani bajarish uchun 8 birlikdan kam bo'lmagan shaxsiy uskunalar, kompyuterlar hisoblash va o'lchash uskunolari ko'p funksiyali printerlar) mavjudligi	0-15
V. Ishtirokchining tanlash predmeti bilan tanishganligi va o'rganganligi to'g'risida ma'lumotnoma. 5-shakl (15 ball)		
1	Loyihalash ob'ektini ko'rganligi va o'rganib chiqilganligi	0-10

Izohlar:

3-shaklga ohirgi yillik "Moliyaviy natijalar №1 va №2" ilova qilinadi.

Tanlash ishtirokchisi baholash yakunlariga ko'ra 70 balldan kam ball to'plasa taklif rad etiladi.

Baholash mezonlaridagi talablar tanlash predmetlari turlariga qarab o'zgarishi mumkin.

8. TANLASH TAKLIFLARINI MOLIYAVIY QISMINI BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Ilovalarni baholash parametrining nomi.	Ballar miqdori
I. Taklif etilayotgan narx (30 ball)		
1	Ishtirokchining taklif etgan eng past narxi – 30 ball Narxga beriladigan ballar O'zbekiston Respublikasi tovar xom-ashyo birjasi "etender.uzex.uz" portali tomonidan avtomatik tarzda baxolanadi.	0-30
II. Birinchi yigma jildni baholashdagi ballar miqdori Tanlash takliflarining baholash mezoni 70 ball		
1	Tanlash takliflarini texnik baxolash yakuniga ko'ra eng ko'p ball to'plagan ishtirokchiga – 100 ball. Narxga beriladigan ballar O'zbekiston Respublikasi tovar xom-ashyo birjasi "etender.uzex.uz" portali tomonidan avtomatik tarzda baxolanadi.	0-70

8.1. O'rganish natijalariga ko'ra baholash guruxi a'zolari tanlash takliflarining quyidagi baholash yakuniy jadvalini to'ldirishadi:

T/r	Ilovalarni baholash parametrining nomi.	Ballar miqdori
1	Taklif etilayotgan narx (narx preferensiyalarini hisobga olgan holda).	0-30
2.	Tanlash takliflarini baxolash varag'i (texnik baholash).	0-70
	Jami ballar miqdori	0-100

8.2. Tanlash bo'yicha eng ko'p ball to'plagan ishtirokchi tanlash g'olibi hisoblanadi.

8.3. Tanlash g'olibiga to'lovlar tuzilgan shartnomaga asosan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi (so'm)da to'lab beriladi.

TANLASH ISHTIROKCHILARI UCHUN KO'RSATMALAR

TANLASH ISHTIROKCHISI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

Tanlash ishtirokchisining nomi _____
 Ishtirokchi rahbarning familiyasi, ismi va otasining ismi _____
 Manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili _____
 Yuridik maqomi _____
 Tashkil etilgan sanasi, berilgan hujjat raqami va uni bergan tomon nomi _____
 Asosiy faoliyat turi _____

Rahbar va uning o'rinbosarlari:

T/r	F.I.Sh.	Ma'lumoti (ta'lim muassasasi, mutaxassisligi, diplom raqami va berilgan sanasi)	Tanlash predmetiga oid ish staji (yil)	Egallagan lavozimi	Egallagan lavozimida ish staji (yil)
1	2	3	4	5	6

Asosiy xodimlar (loyiha bosh injeneri, arxitektor, konstruktor, smetachi, muxandislik tarmoqlarini loyihalovchi xodim va hokazo)

T/r	F.I.Sh.	Ma'lumoti (ta'lim muassasasi, mutaxassisligi, diplom raqami va berilgan sanasi)	Tanlash predmetiga oid ish staji (yil)	Bo'lim nomi, egallagan lavozimi	Egallagan lavozimida ish staji (yil)
1	2	3	4	5	6

Doimiy ishechi xodimlar (ishchilar)

T/r	Mutaxassisliklar nomi	Jami soni, shu jumladan mutaxassisliklar va razryadlar bo'yicha	Shundan, malakasini tasdiqlovchi hujjati borlari	Ish staji 3 yildan kam bo'lmaganlari
1	2	3	4	5
	Jami			

Tanlash ishtirokchi rahbarining imzosi:

/imzo va muhr/

Tuzilgan sana: " ____ " _____ 20__ y.

2 - SHAKL

TANLASH ISHTIROKCHISINING MOLIVAVIY KO'RSATKICALARI
(shaklga ohirgi yillardagi moliyaviy natijalar va buxgalteriya balanslari haqidagi hisobot ilova qilinadi)

(tanlash ishtirokchisining nomi)

AKTIVLAR	Yillar	PASSIVLAR	Yillar
Uzoq muddatli aktivlar		O'z mablag'lari manbai	
Asosiy vositalar		Ustav kapitali	
Shundan		Taqsimlanmagan	
Ishlab chiqarish fondlari		foyda	
Qoldiq qiymat		Majburiyatlar	
Kapital qo'yilmalar		Zaymlar	
Tugallanmagan ishlab chiqarish		Kreditor qarzdorlik	
Joriy aktivlar		Shundan muddati o'tgan qarzdorlik	
Aylanma mablag'lar		Shundan byudjetdan qarzdorlik	
Ulardan ishlab chiqarish zaxiralari		Shundan	
Debitor qarzdorlik		Ish haqidan qarzdorlik	
Shundan muddati o'tgan qarzdorlik			
Jami balans Aktivi bo'yicha		Jami balans passivi bo'yicha	

MOLIVAVIY NATIJA

Nomi	Yillar	Nomi	Yillar
1. Realizatsiyadan olingan tushum		8. Sof foyda	
2. Realizatsiyadan olingan sof tushum		Shundan asosiy faoliyat bo'yicha	
3. Realizatsiya kilingan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi		Umumxo'jalik faoliyat bo'yicha	
4. Ma'muriy xarajatlar		9. Asosiy faoliyatdan olingan foyda	
5. Boshqa xarajatlar		10. Umumxo'jalik faoliyatdan olingan foyda	
6. Daromad solig'i to'lovigacha foyda		11. Zarar	
7. Daromad solig'i		shundan asosiy faoliyatdan	
		Umumxo'jalik faoliyatdan	

Balans foydasi _____

Oxirgi 3 yilda bankrotlik yoki to'lov qobiliyatsizligi yuzasidan sud ishi olib borilganmi? _____

**TANLASH PREDMETIGA O'XSHASH OB'EKTLARDA
OXIRGI YILLARDAGI ISH TAJRIBASI**

(tanlash ishtirokchisining nomi)

	Ob'ekt nomi, loyiha shartnomasi summasi, Ishlarning boshlanish va yakunlanish sanasi	Buyurtmachi nomi	Bajarilgan ishlar summasi	Yillar
	Jami:			

Tashkilot rahbarining imzosi: _____

Tuzilgan sanasi: " ____ " _____ 20__ y.

Izoh: Ma'lumotlar ishtirokchi tomonidan mustaqil to'ldiriladi va ishlarni bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlari nusxalari bilan tasdiqlanadi.

**TANLASH ISHTIROKCHISINING ISHLARNI BAJARISHDA FOYDALANADIGAN
USKUNALAR, KOMPYUTER, HISOBLASH VA O'LCHASH USKUNALARI, KO'P
FUNKSIYALI PRINTERLAR RO'YXATI**

T/r	Nomi	Markasi	Soni	Texnik holati
1	2	3	4	7
1				
2				
3				
4				
5				
6				
	Hammasi			

Tashkilot rahbarining imzosi: _____

Tuzilgan sanasi: " ____ " _____ 20__ y.

TANLASH PREDMETINI KO‘ZDAN KECHIRGANLIGI TO‘G‘RISIDA MA‘LUMOTNOMA

Ushbu bilan tasdiqlanadiki, men _____
(F.I.O, lavozimi.)

Tomonidan 20__yil _____da berilgan ishonchnomaga asosan quyidagilarni batafsil o‘rgandim:

- a) tanlash hujjatlarini;
- b) loyihash ob‘ektini.

Mazkur shartnomani sifatli, to‘la va o‘z vaqtida bajarilishiga, kelgusidagi ishlarning qiymatiga, hajmlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turli sharoitlar va boshqa holatlar hamda loyiha ishlanadigan ob‘ekt bilan tanishdim. Ushbu holatlarning barchasi o‘z taklifimizda hisobga olingan.

Ishtirokchining vakolatli vakili: _____
(F.I.Sh) imzo

(Buyurtmachining vakolatli vakili: _____
(F.I.Sh) imzo

Tashkilot rahbarining imzosi: _____

Tuzilgan sanasi: “ _____ ” _____ 20__ y.

Ijrochi  L.Rahimov